

Article Information

Article Type: Research Article

This article was checked by iThenticate.

Doi Number: <http://dx.doi.org/10.17121/ressjournal.3707>

ArticleHistory:

Received

28/09/2025

Accept

28/11/2025

**Available
online**

30/11/2025

“DEVON-U LUG‘OT” SO‘ZLARI UCHUN FIHRIST”NING YARATILISHI VA ASOS MANBASII DEVONU LUG‘OT’ SÖZLERİ İÇİN FİHRİSTİN OLUŞTURULMASI VE TEMEL KAYNAĞI

Hamroyeva Orzigul Jalolovna¹

Abstract

Abdurauf Fitrat ilmiy laboratoriyasini adabiyotshunoslik, tilshunoslikning turli sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi. Olimning tilshunoslikning leksikografiya yo‘nalishidagi izlanishlari nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, adabiyotshunoslikning adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, tarixiy poetika yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq. Xususan, olimning “Devon-u lug‘otit turk” asari tadqiqiga bag‘ishlangan ikki yirik asari: “Eng eski turk adabiyoti namunalari” va “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” garchi ikki turli janrdagi asarlar bo‘lsa-da, ularni lug‘at ilmi birlashtirib turadi. Olimning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi XX asr boshlarida yaratilgan ilk majmua bo‘lsa, “Devon-u lug‘ot” sozlari uchun fihrist” asar “Devon-u lug‘otit turk” asari uchun tuzilgan ilk indeks lug‘at sanaladi. Maqolada Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasidagi lug‘at qism “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” so‘zliklari bilan qiyosiy o‘rganiladi. “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asarining yaratilishi, tarkibiy tuzilishi borasida to‘xtalinadi. Shu asosda olimning lug‘at tuzish printsiplari, borasida ilmiy xulosalar taqdim etiladi. Tadqiq davomida statistik, sharhlash, komparativistik tahlil usul va metodlaridan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: majmua, lug‘at, lug‘atshunoslik, fihrist, indeks, adabiy parcha.

Özet

Abdurauf Fitrat’in ilmi çalışmaları, edebiyat bilimi ile dil biliminin çeşitli alt alanlarında yürüttüğü araştırmalar oluşturur. Özellikle dil biliminin sözlük bilimi (leksikografi) sahasında ortaya koyduğu çalışmalar, yalnızca dil bilimiyle sınırlı kalmayıp edebiyat bilimi, edebiyat teorisi, edebiyat tarihi, edebî eleştiri ve tarihî poetika gibi alanlarla da doğrudan ilişkilidir. Fitrat’ın “Devon-u Lug‘otit Türk” üzerine gerçekleştirdiği incelemeler çerçevesinde kaleme aldığı iki temel eseri – “En Eski Türk Edebiyatı Nümuneleri” ile “Devon-u Lug‘ot’ Sözlari İçin Fihrist” – her ne kadar farklı türlerde yazılmış olsa da sözlük bilimi ortak paydasında birleşmektedir. “En Eski Türk Edebiyatı Nümuneleri”, XX. yüzyılın başında hazırlanmış ilk edebî derlemelerden biri olarak değerlendirilebilirken, “Devon-u Lug‘ot’ Sözlari İçin Fihrist” ise “Devon-u Lug‘otit Türk” için düzenlenmiş ilk indeks sözlük niteliğini taşımaktadır. Bu makalede, Fitrat’ın söz konusu külliyatındaki sözlük bölümü ile “Devon-u Lug‘ot’ Sözlari İçin Fihrist”te yer alan madde başları karşılaştırmalı olarak incelenmektedir. Ayrıca “Fihrist”in ortaya çıkışı, yapısal

¹ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek Tili Va Adabiyoti Universiteti, Filologiya Fanlari Doktori, Professor v.b. arguvon87@mail.ru. ORCID: 0000-0002-3904-9712

özellikleri ve düzenleniş ilkeleri üzerinde durulmakta; bu doğrultuda alimin sözlük hazırlama yöntemine ilişkin bilimsel çıkarımlara ulaşılmaktadır. Araştırmada istatistiksel değerlendirme, yorumlayıcı çözümleme ve karşılaştırmalı analiz gibi yöntem ve tekniklerden yararlanılmıştır.

Anahtar Kelimeler: Külliyyat, sözlük, sözlük bilimi, fihrist, indeks, edebî parça.

KIRISH

Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asari turkiy dunyoning, tilshunoslik, adabiyotshunoslikning muhim birlamchi manbalaridan sanaladi. Shu bois necha asrlardan beri ayni asar adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, geografiya, tarix kabi turli fan sohalarining bir qancha tarmoqlari kesimida o‘rganilmoqda, tadqiq etilmoqda.

XX asr boshlarida davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatining o‘zgarishi, adabiy, ilmiy-madaniy sohalaridagi tub burilishlar “Devon-u lug‘otit turk” asarining yangi tamoyil va uslublar asosida o‘rganish ehtiyojin tug‘dirdi. Bu davrning yirik olimlaridan biri Abdurauf Fitrat tadqiqotlarining asosi ham turkiy lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan – “Devon-u lug‘otit” turk asarining o‘rganilishi bilan bog‘liq. Abduraf Fitratning “Devon-u lug‘otit turk” asaridagi manzum parchalar tasnifiga bag‘ishlangan “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asari turkiy adabiyotshunoslikdagi muhim voqealardan biri bo‘ldi. Fitrat “Devon-u lug‘otit turk” asarining qachon va qayerda topilgani haqidagi dastlabki ma‘lumotni asarning birinchi noshiri va ilk tarjimoni Rifat Kilislining “Yangi tong” gazetasida e‘lon qilingan maqolasi orqali bayon qilgan.


Kilisli Rifat “Devon-u lug‘otit turk”ni nashrga tayyorlashda, Basim Atalay tarjima qilishda matndagi ayrim chalkash o‘rinlarni tuzatishga harakat qilganlar.

ASOSIY QISM


OzR FASHIda “Devon-u lug‘otit turk” asarining bir qancha toshbosma nusxalari mavjud bo‘lib, matbaa va nashr ishlari endi shakllana boshlayotgan bir davrda o‘zbek olimlarining “Devon”ni chuqurroq o‘rganishlariga zamin yaratgan. Toshbosmalarning aksariyati Istanbul nashri bo‘lib, Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasidagi parchalarni ayni shu toshbosmalarga asoslanib, taqdim qilgan. Inventar raqami 5201-3 bo‘lgan, 1914 –1916-yillarda nashr qilingan, 1106 sahifadan iborat toshbosma, 5206-3, 5204-5, 14345-47, 8999, 9000, 5206-8 inventar raqamli toshbosmalar, 20927 inventar raqamli hijriy 1333 yilda nashr qilingan, 20929 inventar raqamli hijriy 1335 yilda nashr qilingan litografiyalar Fitrat kabi olimlarni mumtoz namunalarni kitobxonga yetkazishga ilhomlantirgan. Fitrat “Devon-u lug‘otit turk” asari xususida, nazmiy parchalar va ularni tizimlashtirish borasida tadqiqotlar olib borar ekan, nazmiy parchalarning nasriy bayoni va parchalar uchun ishlab chiqilgan lug‘at qism olimning chin ma‘nodagi adabiyotshunos ekanligidan dalolat beradi.

Olimning lug‘at ilmiga oid yana bir muhim asari “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” bo‘lib, asar OzR FASHIning Qo‘lyozmalar fondida 5046/1 inventar

raqamli “Devon-u lug‘ot” sozlari uchun fihrist” sarlavhasi ostida saqlanadi.




Har bir so‘z qaysi jildda, sahifada ekanligi ko‘rsatilgan. Arabcha nashrning birinchi jildidagi so‘zlar daftarning 1–57, ikkinchi jilddagi so‘zlar 59–62, 74–83 sahifalarda, uchinchi jilddagi so‘zlar esa 62–66, 83 sahifalardan keyingi betlarda berilgan². “Devon” tadqiqotchilaridan H.Hasanovning fikricha, bu ko‘rsatkich 1924–1925-yillarda tuzilgan. Agar shu sana ilmda e’tirof etiladigan bo‘lsa, bu qo‘lyozma adabiyotshunoslikda “Devon” bo‘yicha tuzilgan dastlabki indeks-lug‘at hisoblanadi. Qo‘lyozma 3 ta yirik asarni o‘z tarkibiga olgan, 190 sahifadan iborat matn ichida berilgan.



Qo‘lyozmadagi keyingi ikki asar Alisher Navoiyning “Vaqfiya” hamda “Munshaot” asarlari bo‘lib, bir-biridan farqli siyohlarda ko‘chirilgan. Tadqiqotchi Abdulla Nosirov qo‘lyozmaning so‘nggi qismida “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist”ni o‘rtoq Hanif 1963-yilda nashr qildirganini keltirib o‘tgan. Olim bu lug‘at Fitrat

² Lug‘atdagi so‘zlar arab alifbosi asosidagi taqsimlangan. Bir harf bilan boshlanuvchi so‘zlarning uchala jilddagi ishlatilgan o‘rinlari keltirilib, keyin keyingi harfga o‘tilgan.

tomonidan tuzilgan deb taxmin qiladi, biroq noshir bu haqda hech qanday ma’lumot bermaganini keltirib o’tadi. Qo’lyozmaning 119-sahifasiga qadar qismi “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asari bo’lib, lug‘at “Devon-u lug‘otit turk”ning har uch jildi uchun tuzilgan so‘zliklardan iborat. Lug‘atdagi so‘zlar alifbo tartibida keltirilgan bo’lib, so‘zlar “Devon...”ning nechanchi jild va qaysi sahifada ishlatilgani alohida qayd etib borilgan. Lug‘atdagi tartib 1-, so’ng 2- va 3-jildda ishlatilgan so‘zlardan iborat. Qo’lyozma oq muqova bilan qayta ta’mirlangan. “Vaqfiya” hamda “Munshaot” asarlari ko‘chirilgan sahifalarning qo’lyozmaga birlashtirilgani sezilib turadi. “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asari ikki xil siyohda: asarning boshlang‘ich qismidan tortib “lom” harfigacha bo’lgan sahifalar qora siyohda, keyingi sahifalardagi lug‘at so‘zlar to‘q pushti siyohda ko‘chirilgan. Sahifa ikki qismga ajratilib, so‘zlar ustun shaklida nechanchi sahifada keltirilganlik raqami bilan tartiblangan. Hatto bir sahifaning o‘zida bir necha marotaba ishlatilgan so‘zlar ham alohida-alohida ko‘chirilgan.



Kub [kub] كُب 85

Kib [kib] كِب 85

Kib [kib] كِب 85

Kuj [kuj] كُج 86

Kuj [kuj] كُج 86


Kuj [kuj] كُج 86

Kij [kij] كِج 86

Lug‘atda so‘zlarning ma’nosi keltirilmagan, ular shunchaki sanab o‘tilgan, xolos.

Qo’lyozma o‘zbekcha nasta’liq xatida ko‘chirilgan bo’lib, qo’lyozmaning ba’zi o‘rinlarida bo’sh sahifalar keltirilgan. Ana shunday sahifalarda lotin yozuvida “fitrat” so‘zining yozilishi mashq qilingan. Bu esa ushbu lug‘atning lotin yozuvi

qabul qilinish arafasida tuzilgan, degan taxminni keltirib chiqaradi.



Lugʻat *be* harfidagi soʻzlarni keltirish bilan boshlanadi. ب (*Be*), ت (*te*), ج (*jim*), خ (*xe*), ذ (*dol*), ز (*zol*), س (*sin*), ش (*shin*), غ (*g'e*), ق (*qof*), ك (*kof*), ل (*lom*), م (*mim*), ه (*hoye havvaz*), ا (*alif*), ي (*yo*) kabi harflar tartibida keltirilgan. Har bir harf alohida ajratilib, boshlanuvchi soʻzlar avval 1-, soʻng 2- va 3-jildlarda ishlatilishiga qarab taqsimlangan. Lugʻat:

خلد-ا, ب³ (*Be*)

Bat [bāt] بت 26

Bit [bit] بت- 269

Bir [bir] بر- 271

Bis [bis] بس- 275

Biz [biz] بز- 273

Bush haliq [buş haliq] بُش خَلِيق 277

Bush [buş] بُش 277

Bakxank [bakxank] بَكْخَنْك 277

Buk [buk] بُك- 279

Buk [buk] بُك 279

Bul ot [bül āt] بُل ات- 281

Ban [bän] بَنْ- 283

Bart [bart] بَرْت- 286

Bart [bart] بَرْت 286

Burt tutti [bürt tütti] بُرْت تُتْتِي 286

³ Bugungi alifbo va transkripsiya shakli qoʻshildi. Lugʻatdagi soʻzlar faqat arab yozuvi va betlardan iborat shaklda berilgan.

tarzida boshlangan. Qora siyohda ko‘chirilgan so‘zlarga to‘q pushti siyohda ba’zi o‘rinlarda qo‘shimchalar kiritilgan. Ba’zi so‘zlarning usti o‘chirilgan, tuzatilgan. 2-jildda ishlatilgan *be* harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarga ushbu qo‘shimchalar kiritilgan:

Biltindi [biltindi] بِلْتِنْدِي (?) 202


Bilmindi [bilmindi] بِلْمِنْدِي 208

Burqimoq [bürkimāq] بُرْقِمَاق 272

Bilkazmoq [bilkazmāq] بِلْكَزْمَاق 274

Bo‘ynatmoq [bθynatmāq] بُوَيْنَاتْمَاق 287

Buzmunhuq [büzmunhuq] بُزْمُنْحُق 287



Bu kabi qo‘shimchalar kiritish holati juda ko‘p uchraydi. *te* (ت), harfiga oid so‘zlar keltirilgan o‘rinlarda quyidagi so‘zlar qo‘shimcha tarzda alohida ustunda kiritilgan:

Talimsandi [talimsandi] تَلِمْسَنْدِي - 206

Turumsandi [turumsandi] تُرُْمْسَنْدِي

Tilimsindi [tilimsandi] تِلِمْسِنْدِي 208

Tuzg‘urumsindi [tuzg‘urumsindi] تُزْغُْرُْمْسِنْدِي 209

Titru [titru] تِتْرُ 235

Tasg‘anmoq [tasg‘anmāq] تَسْغَنْمَاق 272

Tilqatmoq [tilqatmāq] تِلْقَاتْمَاق

Lug‘atning ba’zi o‘rinlarida esa so‘zlar qalamda o‘chirilgan.

Natak [natak] نَتَك 287

Najuk [najuk] نَجُوك 329

Nalun [nalun] نَلُون 329

Narak [narak] نَرَك- 329

Mim harfi bilan boshlanuvchi soʻzlar keltirilgan oʻrinlarda sahifa 4 ustunga boʻlingan va juda qisqa masofalarda soʻzlar joylashtirilgan.

Lugʻatda soʻzlar jildlar asosida tartib bilan taqsimlanish bilan birga, ularning joylashishida turkumlari ham eʼtiborga olingan. Avval ot, sifat, ravish, olmosh turkumiga mansub soʻzlar keltirilsa, keyin feʼlga oid soʻzlar joylashtirilgan.

Mom [mām] مام 83

Mam [mam] مم 84

Mun [mun] مون 102

Manqishlarigʻ [manqışlarigʻ] منقشلارغ 118

Manyashligʻ qoʻy [manyashligʻ] منیشلغ قوی 118

Mayaq [mayaq] میق 125.....

minkar [minkar] منکر 278

mankku [mankku] منکۇ 280

munklugʻ or [munklugʻ ār] منکلوغ ار 283

munkiz kak [munkiz kak] منکز کک 287

munkmak [munkmak] منکمک 290


munkuqmoq [munkuqmāq] منکوقماق 292

munkqarmoq [munkqarmāq] منکقرماق 294

mankdashmak [mankdashmak] منکدشماق 295

mankashmak [mankashmak] منکشماق 295


tarzida keltiriladi. Bu tartib lugʻatning oxiriga qadar saqlangan.



MULOHAZA VA TAHLIL

Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning joylashishi, ishlatilishi, tanlanishi uslubi lug‘at Fitrat tomonidan tuzilganligidan dalolat beradi. Bu holat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarining lug‘at qismini ushbu qo‘lyozma bilan solishtirganimizda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasini 3 qismga ajratgan bo‘lib, majmuaning 3-qismi maxsus lug‘atdan iborat. Fitrat lug‘at qismda keltirilgan so‘zlarni “Devon-u lug‘otit turk” bilan yaqin davrlarda yaratilgan “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” kabi asarlardagi variantdoshlari misolida “Muqadimmat ul-adab” kabi lug‘atlardan foydalangan holda ma‘nosini izohlashga harakat qilgan. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari nashrini amalga oshirgan Najib Osim yo‘l qo‘ygan xatoliklarni “Devon-u lug‘otit turk” asari tarkibidagi so‘zlar misolida isbotlagan.

Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi garchi “Devon-u lug‘otit turk” asari tarkibidagi manzum parchalarning tizimlashitirilishi, tasniflanishi bilan bog‘liq majmua bo‘lsa-da, bu majmua to‘la ma‘noda lug‘atshunoslikka oid asar sifatida ham e’tirof etilishga haqli asoslar mavjud.



Majmuadagi so‘zlar izohi ikki o‘rinda keladi:

- Parchalar, ularning nasriy bayoni keltirilganda, maxsus lug‘at qismi ham keltiriladi.
- Majmuaning 3-qismi maxsus “Lug‘at” qismidan iborat.

Bugun o‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz shoirlar lirik asarlarining sharhi bilan bog‘liq jiddiy tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy g‘azallarining sharhi bilan bog‘liq 10dan ortiq professor olimlarning sharh-kitoblari nashr qilindi. Najmiddin Komilovning “Ma’nolar olamiga safar” asaridagi tizim va uslub, tuzilish bugungi sharhlar uchun asos bo‘lmoqda. Bu xususiyat boshqa shoirlar she’rlari sharhiga bag‘ishlangan manbalarga ham tegishli. Shuni

alohida ta'kidlash kerakki, aslida bu uslub va tizimning asoschisi Abdurauf Fitrat sanaladi. Olimning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi tarkibidagi manzum parchalar sharhi ayni tamoyilni asos qilib olgan. Ya'ni Fitrat bu sharhni 3 bosqich asosida amalga oshiradi:

- dastlab she'r matni keltiriladi;
- nasriy bayoni taqdim etiladi;
- lug'at keltiriladi.

Olim taqdim etgan uchinchi bosqich – lug'at qismining keltirilishi haqiqiy tadqiqot bosqichi sanaladi. Chunki Fitrat bu bosqichda so'zlar ma'nosini shunchaki keltirmaydi. Dastlab so'zning tub, leksik ma'nosini keltirib, so'ng bayt, misra zamiridagi mazmuni bilan tanishtiradi, so'zning bosh tomirini aniqlashga harakat qiladi. Adabiy parchalar tarkibidagi so'zlar mazmunining tushunarli bo'lishi, izohlanish talabidan kelib chiqib, lug'at sifatida keltirilgan so'zlarning miqdori turlicha. Lug'at tarkibida so'zlarning qo'llanishi miqdoriga ko'ra eng kam miqdor 2 so'zdan iborat bo'lsa, eng ko'p miqdor 37 ta so'z izohidan iborat.

O'zlak yarog' kuzatdi,

O'g'ri tuzaq uzatdi.

Baklar bakin azitti,


Qachsa qali qurtulur. (J.2, b.269.)

“Alb ErTo'nga marsiyasi” tarkibida keltirilgan ushbu parcha matni uchun 3 so'zning izohi keltirilgan: *yarog'* – fursat, yararli vaqt; *azitmoq* – adashtirmoq, yo'ldan chiqarmoq; *qali* – qalay, qanday.

Fitrat manzum parchalar izohi uchun keltirilgan lug'at qismi va majmua so'ngining uchinchi qismi – Lug'at qismida bir xil uslub va tamoyilga amal qilgan. Har ikkala qismda ham so'zlarning bosh mazmuni, etimologiyasi, bayt va misradagi mazmuni tadqiq etiladi.

“*Yurlamoq* – buni topolmadim. “Devon-u lug'ot”da shu misra “ashulachilar kabi nola qiladir” deb tarjima qiling'an. Ashula ma'nosida “yir” so'zi bor. To'g'risi “yirlamoq” bo'lsa kerak”. Ko'rinib turibdiki, Fitrat tushunarsiz so'zlarning mazmunini berishda unga aloqador so'zlar bilan izohlaydi. Matnni butun bir sistema sifatida tadqiq etadi.

Abdurauf Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasida 3-qismning boshlang'ich qismida “O'tkan iki qismda ko'rganimiz manzumalarda izohka muhtoj ko'b lug'atlar bor. Ularni o'z o'rnida izoh qilish o'qu(v)chilarni maqsaddan uzoqlashtiradir. Shuning uchun kitobka uchinchi qism orttirib, mazkur lug'atlarni izoh qilish munosib ko'rildi” izohi bilan “Devon-u lug'otit turk” asari tarkibidagi manzum parchalar nasriy bayonini keltirish chog'ida so'z ma'nolari bilan bog'liq muammolarga duch kelingani sababidan bu qismning qo'shilgani aytiladi.



Fitrat majmuaning “Lug‘at” qismida *asiz, ardam, arig‘, ugrayuk, azin, uzumoq, ajun, ukur, uzurmak, uqimoq, armoq, ilarmak, urushmak, urlanmak, urmak, amitmak, ukush, ukrimak, anunmoq, ayiq, atyin, uzunmak, ulinmak, alqashmoq, esh, angitmoq, ivriq, urpashmoq, ush, uzurmoq, umul, ushklmaoq, o‘las ko‘z, igramak, alimlig‘, adash, umunj, urkushmak, arij, urung, ut, inj, aqrun, uza, bilka, buku, baliq, budun, bo‘qoqlanmoq, bash, butmak, baliklamak, bo‘lnamoq, bijg‘as, to‘nga, tavranoq, tushnamak, tabaru, tubilamak, to‘zunlik, tutchi, tuzg‘urmoq, tusun, to‘ru, to‘ksin, takma, talim, tum, tulum, jarkashmak, jig‘moq, jalmak, jash, jav, daqi, savamoq, siqirmoq, sig‘tamoq, savuk, singak, su, suchulmak, saqinj, so‘kmak, savulmoq, saran, sag‘moq, qali, qaniqi, qaliq, qaymoq, qingri, qarshi, qazash, qartamoq, qag‘rulmoq, qirchatmoq, qiqirmoq, qamug‘, gavramak, kartmak, kuvaz, kukshin, kedin, kak, kuk, kuyurmak, kislinmak, kuzmak, yarog‘, yima, yunchig‘, yanchimoq, yalinguq, yavlaq, yushulmoq, yazim, yin, yuduzmak, yumutmoq, yaqishmoq, yatika, yiramoq, yulaq, yula* so‘zlarining izohini keltirgan.

Asarning “Lug‘at” qismi “*asiz*” so‘zining izohi bilan boshlanadi. Fitrat bu so‘zni “*esiz*” ma‘nosidagi so‘z ekanligini asoslaydi. Olim bu so‘z “Devon-u lug‘otit turk”da “*yomon*” so‘ziga sinonim bo‘lganini ta‘kidlar ekan, so‘zlar ma‘nolarini taqdim qilishda birgina manba bilan kifoyalanib qolmaydi. Fitratning matn ustida ishlash printsipi shuni ko‘rsatadiki, u bir so‘z ma‘nosini keltirishda so‘z etimologiyasini, ma‘noviy tadrijini, semantik xususiyatini, turli shakllarini ham o‘rganib chiqadi. Masalan, Najib Osimbek “Hibat ul-haqoyiq”ni nashr qilganida, Fitrat bu nashrdagi so‘zlar o‘qilishidagi kamchiliklarni ko‘rsatar ekan, Najib Osimbekning bu kamchilikka yo‘l qo‘yganining asosiy sababi sifatida “Hibat ul-haqoyiq”ga til va davr nuqtayi nazaridan yaqin bo‘lgan “Devon-u lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” kabi asarlar matni va undagi so‘zlar bilan qiyoslanmaganligini ko‘rsatadi. Bu tahrir tamoyili olimning barcha ilmiy tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. Yuqoridagi “*asiz*” so‘zi izohida ham Fitrat shu tamoyil asosida bu so‘zning ma‘noni

keltirishda, “Devon-u lug‘otit turk”dan keyin yaratilgan “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq” asarlarida ham “ezgu” so‘zining zid ma’noda ishlatilishini ma’lum qilib “Qutadg‘u bilig”dan bayt keltiradi:

Tushi ezib, bo‘lsa sevinisa turub,

Asiz ko‘rsa “rab” qosig‘insa turub...

Olim bu bilan cheklanmay, “Hibat ul-haqoyiq” asariga ham murojaat etadi. Najib Osimbek tomonidan nashr qilingan ushbu asarga olim tomonidan lug‘at qismi qo‘shilgan. Fitrat asarning ana shu nashriga ilova qilingan lug‘at qismiga e’tibor qaratib, so‘z tomiri, asli “osig‘iz(foydasiz)” so‘zi ekanligini keltiradi. Demakki, Fitrat bu o‘rinda Najib Osimbek fikriga qo‘shiladi. Olim so‘z ma’no tomirini aniqlashda davom etadi, usmonlilarning “yaxshi” ma’nosidagi “ayi” so‘zi bevosita “asiz” so‘zi o‘zagi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi: *asiz – ayisiz – yaxshiliksiz – yomon*. Ko‘rinib turibdiki, Fitrat har bir so‘z ma’nosini berishda, kichik tadqiqot o‘tkazadi. Ularning bosh tomirlarini aniqlaydi. Semantik xususiyatlarini ishlab chiqadi.

“Savamoq – Tamom bolmoq, sob bolmak. Bitmak. Buning tomuri “savdirkim: masal, hikoyat, so‘z, xabar manolaridadir. Xabar, so‘z, hikoyatning tarqalib turishi munosabati bilan bo‘lsa kerak, “tarqalib bitmak” manolarida savranmoq, savramoq; “bitirmak” manosida savritmoq so‘zlari bolgani kabi

Balak ettim ani shahmga manunk

Havodorligimni tugal bilsutib (bilsun deb)

(“Hibat ul-haqoyiq” birinchi qism, 30 nchi bet)

Bundagi “balak” so‘zini Najib Osimbek “alamat, nishon” deb tarjima qiladir, yanglishadur. “Tarqalmoq” manosida *savrulmoq* so‘zi bordir. Bukun bizda bo‘lgan “savirmoq” ham “sovchi” so‘zi-da shu tomirdandir”.

Lug‘at ilmi, so‘zlar ma’nolarining o‘zgarishini aniqlash, so‘zlar bosh tomiri va kelib chiqishi bilan bog‘liq masalalar tadqiqi olimdan adabiyotshunoslik ilmi bilan birgalikda tilshunoslik, tilshunoslikning deyarli barcha bo‘limlarini chuqur bilishni taqozo qiladi. Chunki so‘zlar etimologiyasi va ma’nosi yuzasidan chiqariladigan yanglish xulosalar tilning leksik qatlami bilan birgalikda til tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun lug‘at tuzish, lug‘at yaratish mas’uliyatli vazifadir. Lug‘at tuzishdagi muhim shartlardan biri so‘zlarni bir-biriga qiyoslash va bu qiyos natijasida ularning bog‘liqligi, ma’noviy imkoniyatlarini ko‘rsatib berishdir. Fitrat “qartamoq” so‘zini izohlar ekan, bu so‘zning ma’nosi “davolamoq” ekanligini ta’kidlab, “qartamoq” so‘zini “o‘tlamoq” so‘zi bilan qiyoslaydi. “O‘tlamoq”ning ma’nosi o‘simlik ma’nosidagi “o‘t” so‘zi bo‘lsa, ikkinchisi, ya’ni “qartamoq”ning tomiri “qor” ekanligiga ishora qiladi. Ikki so‘z ma’nosidagi qiyos asosida esa, “burung‘i zamonlarda o‘sumliklar bilan davolashka o‘xshab, qor bilan davolash ham bor ekan” degan xulosaviy hukmni beradi.

Fitrat so‘zlar ma’nosini izohlashda Alisher Navoiyga bir necha marotaba murojaat etadi. Xususan, Navoiyning tilshunoslikka oid “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari tarkibidagi fe’llar ma’nolariga to‘xtaladi. Olim “sig‘tamoq” so‘zini izohlar ekan, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bu so‘zni “siqtamoq” shaklida ishlatganini va o‘z ijodidan namuna keltirganini ta’kidlaydi:

Ul oyki, kula-kula qir og‘latti meni,

Yig‘latti meni demaki siqtatti meni.

Bayt matnida ham biroz o‘zgarish mavjud. Bu holat bu ikki asar ustida matnshunoslikka oid tadqiqot olib borilishi kerakligini taqozo qiladi.

XULOSA

Majmuaning lug‘at qismida 126 ta so‘z keltirilgan bo‘lib, olim har bir so‘zning etimologiyasini keltirish bilan birga ayni shu so‘zlar qollangan misralardan namunalari ham keltiradi. Ba’zi orinlarda so‘zlarning morfem tahlilini ham amalga oshiradi. “*Kislinmak – kis+il+in+mak. Oz-ozidan kesilmak*”. Majmuadagi “Lug‘at” qism izohli lug‘at shaklida bo‘lib, so‘zlarning ma’nosini ochib berishga xizmat qilgan. “Devon” so‘zlari uchun fihrist” lug‘at esa indeks lug‘at shaklida bo‘lib, “Devon”da ishlatilgan so‘zlar keltirilgan, xolos. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasini tuzgandan so‘ng “Devon-u lug‘otit turk” asari uchun maxsus fihrist tuzishni maqsad qilgan. So‘zlarning o‘qilishi, yozilishi, ayniqsa, fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarning keltirilish uslubi, -*mak* va -*moq* qo‘shimchalarining so‘zlarning o‘zagiga qarab taqsimlanishi Fitratning ishlash uslubini eslatadi. Undan tashqari, “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asaridagi lug‘at qismidagi so‘zlarning tartibi “Devon-u lug‘ot” sozlari uchun fihrist”dagi tartibga mos tushadi. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarida barcha so‘zlarni keltirmay, ularning ba’zilarinigina saralab olgan. “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist”da esa 8 mingtaga yaqin so‘z keltirilgan. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, “Devon” so‘zlari uchun fihrist” Fitrat tomonidan 1928–1929-yillar oralig‘ida, lotin yozuviga o‘tish arafasida, “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasi yaratilganidan so‘ng tuzilgan. Bu lug‘at olimning jiddiy tadqiqotlaridan biri bo‘lib, “Devon-u lug‘otit turk” tarkibidagi parchalar davri, so‘zlarning etimologiyasini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Abdurahmonov A. (2005). Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T.: Yangi asr avlodi..
- Atalay B. (1939-1941). Divanu lugatit turk tercimesi. 1-3 cild. Ankara.
- Brokelmann.C. (1921). Mahmud al-Kasghari uber lie Sprachen un die Stamme der Turlen in X1 Jahrh (Korosi Csama – Archivum).
- “Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist. O‘zR FASHI Qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 5046/I.
- Hamroyeva, O. (2023). Fitratning aruz va milliy she’r tizimi xususidagi mulohazalari. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
- Koshg‘ariy M. (1960, 1961, 1963). “Devonu lug‘atit turk”. 3 tomlik. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov). – T.: O‘zbekiston FA nashriyoti.
- Mahmud al Husayn binni Muhammad al-Koshg‘ariy: kitobi Devon-u lug‘atit turk (O‘ngso‘z) (1933). – Istanbul. (arab yozuvida)
- Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5201-3.
- Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5206-3.
- Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5204-5.
- Koshg‘ariy M. Devon-u lug‘otit turk. –Istanbul, I-II jild – 1914; III jild - 1916. O‘zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5206-8.

- Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 8999.
- Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 9000.
- Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, Hijr. 1333. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 20927.
- Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, Hijr. 1335. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 20928.
- Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. 1-3 jild. (Nashrga tayyorlovchilar: A.Rustamov, H. Boltaboyev, B.Isabekov) – T.: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 442 b.
- Koshg'ariy M. (2017). Devon-u lug'otit turk (Nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Kuprulu F. Turk adabiyotining manshai // Milliy tatabbular majmuasi. 2-jild, 4-son (turk tilida).
- Radloff W. (1882). Phonetik der nordichen turk sprehen/ Leipzig.
- Stebleva I.V. (1971). Razvitie tyurkskix poeticheskix form XI veke. – Moskva.
- Seyhan, T., & Jalolovna, H. O. (2023). FITRAT-TEXTOLOGIST (Based on the complex" Examples of Uzbek literature"). Academia Science Repository, 4(5), 1083-1087.
- Fitrat. (2008). Eng eski turk adabiyoti namunalari. Toshkent-Samarqand. 1927. // Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. (Nashrga tayyorlovchi Hamroyeva O.) – Toshkent.
- Fitrat. (2013). O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. – Toshkent-Samarqand: O'znashr, 1928 // Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. (Nashrga tayyorlovchi Hamroyeva O.) – Toshkent.

Ilova

Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasining 3-qismi

Uchinchi qism

O‘tkan ikki qismda ko‘rganimiz manzumalarda izohka muhtoj ko‘b lug‘atlar bor. Ularni o‘z o‘rnida izoh qilish o‘quchilarni maqsaddan uzoqlashtiradir. Shuning uchun kitobka uchinchi bir qism orttirib, mazkur lug‘atlarni izoh qilish munosib ko‘rildi.

A

Asiz. Bizning bukun *esiz* deganimiz so‘zdir. «Devoni lug‘at»ning ko‘rsatkaniga ko‘ra, «yomon» demakdir. «Qutadg‘u bilig», «Hibat ul-haqoyiq»da ham har vaqt «ezgu» so‘ziga qarshu ishlatiladir.

Tushi ezib bo‘lsa savinsa turub,

Asiz ko‘rsa «rab» qosig‘insa turub.

«Qutadg‘u bilig»

Bu kitobdan tizmalarning hammasida ham shul «yomon» ma‘nosida, ezgu muqobilida ishlatilgan. Yolg‘uz ikkinchi bo‘lumdagi (13) raqamli parchada bukun bizda bo‘lgani kabi *hayf, afsus* ma‘nosida ishlatiladir. Mashhur Najib Osim Afandi «Hibat ul-haqoyiq»ning lug‘atlar qismida bu so‘zning aslini «osig‘is» (foydasiz) deydir. «Devoni lug‘at»da yaxshilatmoq ma‘nosida *etmak* borkim, usmonlilarning yaxshi ma‘nosidagi «ayi»lari shu tomirdandir. Bu «asiz» so‘zining ham shu tomirdan («asiz» – **ayisiz = yaxshiliqsiz = yomon**) yasalg‘ani haqiqatga yaqinroqdir.

Ardam. *Maxtanarli hol, odob, fazilat.* Mening qo‘limdag‘i «Qutadg‘u bilig»da ko‘braq shu shaklda yozilg‘ani holda ora-sira «ardim», «uzrum» shakllariga ham uchramoq mumkindir. «Hibat ul-haqoyiq»da ham «ardam» shaklida yozilg‘an bo‘lsa-da, Najib Osim Afandi «artam» shaklida o‘qub izoh qiladir.

Arig‘. «Aritmoq» so‘zining tomiridan yasalib, *pok, xolis, butunlay* ma‘nolarini bildiradir.

Ugrayuq. «Ugranmoq» tomiridan yasalib, *malaka, odat* ma‘nolarini bildiradir.

Azin. Azirmoq – ayirmoqning tomiri bo‘lg‘on «az-ay»dan yasalg‘an; *ayrim-o‘zga, boshqa* demakdir.

Uzumoq. *Uxlamoq* demakdir. Usmonlichasi «uyumoq»dir. «Muqaddimatu-l-adab»ning mo‘g‘ulchasida «uyqu» muqobilida «judu» so‘zi bor. Umuman, turk tilida «a»ning «y»ga, «y»ning «j»ga aylanishini; ham «z»ning «d» bo‘lushini e‘tibor etkanda «judu» bilan «uzu»ning bir so‘z ekani ma‘lum bo‘ladir.

Ajun. Chig‘atoy adabiyotida har vaqt *ochun* shaklida yozilg‘ani holda «Devoni lug‘at», «Qutadg‘u bilig», «Hibatu-l-haqoyiq»da (j) harfi bilan «ajun» yoziladir.

Ukur. *Hayvon sururlari, poda, ko‘tu.* «Devoni lug‘at»da ko‘paymak, to‘planmoq ma‘nosida «ukmak» bor. Chig‘atoy o‘zbek adabiyotida bu tomirdan yasalg‘on «ukush» so‘ziga ko‘b uchraladirkim, «ancha ko‘b» demakdir. *Ergashmak. Ketidan bormoq.*

Uzurmak. Bu so‘z «Devoni lug‘at»da «uzurmak» shaklida yozilg‘an. «Qutadg‘u bilig»da esa «izarmak» shaklida ko‘rsatilgan. Buning bukungi shakli tatarchadag‘i iyarmakdir.

Uqimoq. *Anglamoq, ong* ma‘nosida *uk* so‘zi ham bordir.

Armoq. *Charchamoq, hormoq.* Bu kitobdagi tizimlarda buning «arg'umoq», «arg'armoq» kabi shakllari bordir.

Ilarmak. *Xayolg'a botmoq.* Odam, ot ham boshqa hayvonlar ba'zan o'ylab ketgan kabi bo'lub, ko'zlari harakarsiz hech narsani ko'rmay, ochiq qoladir. Mana shu holg'a «ilarmak» deyiladi. Bu kunlarda ham Farg'onaning dala o'zbeklari orasida «ot ilardi» degan gap borlig'ini Bo'lot Soliyevdan eshitkan edim.

Urushmak. Urtanmak. Urmak. *Paydo bo'lmoq, ko'rinmak.* Bu so'zlarning tomiri bo'lg'an «ur» ning bizda «o'rin» so'zi bilan munosabati bo'lsa kerak.

Amitmak. *Harakat ettirmak.* «Bolaning zo'r bilan yurishi» ma'nosida «amrismak» so'zi bordir, ul ham shul tomirlardandir. «Muqaddimatu-l-adab»ning mo'g'ulchasida:

hayvon – amitu

jonsiz – amin ukay

tirik – amidu

so'zlari borkim, mushtarak tomirlari «jon» ma'nosida «am» yoxud «ami». Yuqoridagi «amitmak, amrismak» so'zlarining shu mo'g'ulcha tomirdan mumkindir. Doru ma'nosidagi «ay-im»ningda asli shudir. Birda «tuzatmak, yavoshlatmoq» ma'nosida imrattak borkim, dori ma'nosidagi «am-»dandir.

Ukrimak. Yoxud ukramak, *harakat edirmakdir.* Chig'atoy o'zbekchasi «ukurmakdir».

Lab uyur takallumga, zulfini parishon qil,

Qand qiymatin sindir, narxi anbar arzon qil

(Amiriy).

Anumoq. Tayyorlanmoq. Bizdagi «aniq» ham shu tomirdan bo'lsa kerak.

Ukumak. Maxtamoq. Hamd, sano. «Qutadg'u bilig» «ukush ukdi birla tuman ming sano» deb boshlanadi. «Muqaddimatu-l-adab»ning ko'rsatishiga ko'ra, «maqtamoq» so'zi mo'g'ulcha emish!

Ayiq. Va'da berilgan so'z. «Aytmak» so'zining eski shakli «Aymoq»dir. «Ayiq» so'zi shu tomirdandir. Qizig'i shuki, «Hibbatu-l-haqoyiq»ning birinchi misrasi bo'lg'an (ilohiy ukush hamd ayurman sanga)ni Najib Osim Afandi izoh qilg'anda «ayurman» so'zini «ayirmoq, qilmoq» ma'nosida izoh qiladi. Holbukim, uning to'g'risi aytamandir.

Atyin. Mahmud Qoshg'ariy bu ikki so'zni birdan «tan» deb tafsir qiladi. «At» Bilganimiz kusht, «yin» bu kungi in (uya)dir. Bu ikkisi qanday bo'lub tan ma'nosida beradi, kesdira olmadim.

Uzunmak. Uyg'onmoq, usmonlicha uyonmoq.

Ulinmak. Jong'a tekmaq, bezmaq. «Ulmak» so'zi bilan bir tomirdan.

Alqashmoq. Barakalla, ofarin demak, duo qilishmoq. Bu kungi olqishlamoq.

Esh. Yo'ldosh. Bukun ham bu so'z bizda xud(di) shu ma'noda ishlatiladi.

Angitmak. Hayron qolmoq. Bizda «hayron qoldim» o'rnida «Ankumang qoldim» deyilgani kabi tojiklarda ham «Angu, mang mondam», «Angam raft» deyiladi.

Ivriq. Arabcha ibriqdir, qumg'on demakdir.

Uprashmak. O'pkalanmak, g'azablanmak. Usmonlilar «To'ylarim urpardi» deydi.

Ush. Shu topda, hozir, mana demak bo‘lub, bizning «ushbu, o‘shal» dekanimizdagi «ush»ning xuddi o‘zidir.

Uzurmoq. Ayirmoq ma’nosining ikkinchi so‘zi. «Devoni lug‘at»da buning ikki shakli bor: «Azirmoq» ham «uzurmoq».

Umul. Tinch, rohat. «Muqaddimatu-l-adab»da buning ham asli mo‘g‘ulchadir. Anda:

Tindi – amuba

Ting‘an – amuqsan

so‘zlari bordir.

Ushklamak. Sovuqda bosmoq. «Ushak» sovuq demakdir. Usmonlilarning «ushudim»⁴ deganlari shundandir.

O‘las ko‘z. Shahlo ko‘z. Bu kun bizda egri ko‘z (ahval)ga «alo’s» ham, «g‘ilay» ham deyiladi.

Igramak. Aylantirmak. «Ib yigirmak» shundandir. «Muxosara qilish» uchun ham ishlatiladi.

Alimlig‘. «Almoq» tomiridan «alim» so‘zi qarz ma’nosini ifoda qiladi. Alimlig‘: «qarz xoh» demakdir.

Adash. Do‘st, o‘rtoq ma’nosida (*) Buning «adosh» shakli ham ishlatiladi.

Umunj. Umid. Buning mo‘g‘ulchasi «omunj»dir.

Urkushmak. Hurkmak.

Arij. Balkim.

Urung. Juda oq narsa. Bu so‘z «Hibbatu-l-haqoyiq»da ham bordir. Najib Osimbek «Lug‘ati chig‘atoyi» bilan birga «lamig‘, porloq» deb ma’no beradi. Mahmud Qoshg‘ariyning ifodasiga ko‘ra, o‘g‘uzlarning «oq» deganlari turkchada «o‘runk» emish.

Ut. Doru.

Inj. Tinch, xotirjam ma’nolaridadir. «Eninmoq» so‘zi bilan bir tomirdan bo‘lsa kerak.

Akrun. Yuvosh, sekin. Bu kun tatarchada «aqirin» so‘zi bor.

Uza. O‘tkan zamon. Bu kun bizda bu ma’noda «uzal» so‘zi bordir.

B

Bilka. Olim, bilimli. «Bilmak» tomiridan.

Buku. Bilimli, olim, ongli. «Devoni lug‘at»da «to‘lmoq» ma’nosida «bukmak» so‘zi bor. «Buku» ham shuning tomiridan bo‘lsa kerak. Bilka bilan buku aksariyat bilan birlikda «bilka, buku-buku, bilka» shaklida ishlatiladi.

Baliq. Suvda yashag‘uchi ma’lum jonivor. Birda «loy» ma’nosida keladirkim, bukungi shakli «balchiq»dir. Birda shahar ma’nosida «baliq» so‘zi borkim, mo‘g‘ulcha ekani mashhurdir. «Devoni lug‘at»ga ko‘ra, bu g‘ayri islomiy turklar ham uyg‘urlarning so‘zidir. «Muqaddimatu-l-adab»ning ko‘rsatishiga ko‘ra, shaharning mo‘g‘ulchasi «balqasun»dir.

⁴ (*) Adash bu kun ham iste’molda. Lekin do‘st ma’nosida emas, «Hamnom» ma’nosida. Ya’ni ot-dosh.

Budun. Qavm, el, ulus demakdir. «But-bud» tomuri turkchada boy bir tomurdir. «But-bud» muchalaridan (aʼzodan) birining ismidir, bizda «son» ham deyiladi. «Butmak» tamom boʻlmoq maʼnosida keladi. Bukun bizda (bu ishni «but» qil!) deyilgani kabi, tojiklarimiz ham («in kora bud kun»)deylar. Biroq buning feʼllari, bu kun «butmak» emas, «bitmak» shaklida ishlatiladi. Yaraning sogʻalishiga ham «butmak» deyiladirkim, arabcha «eltiyam» demakdir. Yaraning sogʻalishi bir-biridan ayrilgan terining toʻplanib, yopishmogʻi boʻlgʻani uchun bu maʼnodagi «butmak» soʻzi jam maʼnosigʻa yaqinlashadir-da, bundan «bunkul- butun» soʻzlari chiqadi. Qavm, el, ulus maʼnosidagi tomurdan «tarqalmoq», «sochilmoq» maʼnolarida butramoq, butrashmoq soʻzlari bordir.

Boʻqoqlanmoq. Mugʻjalanmoq. «Devoni lugʻat»da buning tomuridan «buqmoq» soʻzi koʻrsatiladi. Oyogʻni yigʻmoq maʼnosida. Bizda bu kun maxsus kasalga deyilgan «buqoq» soʻzi shunday boʻlgʻani kabi, bugʻcha-buqcha soʻzi ham shu tomurdandir.

Bash. Yara. «Bashigʻ» – yarali.

Butmak. Sekinlamak, yoʻq boʻlmoq (buning tomuri toʻgʻrisida yuqorida aytili).

Baliklamak. Hadya qilmoq, bagʻishlamoq. Bu soʻz manzumada «baliqladi» shaklida yozilgan. Biroq «Devoni lugʻat»ning birinchi jild, 322-betida hadya maʼnosida «balak» soʻzi bor. «Hibbatu-l-haqoyiq»da ham hadya maʼnosida «alak» soʻzi bordir.^(*) Shunga koʻra, manzumadagi «balikladi» soʻzini ham «balakladi» deb oʻqush kerak. Bizda esa hadya maʼnosida «boʻlak» soʻzi bordir.

Boʻlnamoq. Asir, tutqun etmak. «Boʻlun»: asir, tutqun. «Lugʻati chigʻatoy»da bu maʼnoda «boʻlgʻun» soʻzi koʻrsatiladi. Muohida.

Bijmoq. Bijmoq. «Kesmak» maʼnosida bichoq, bijqi soʻzlari ham shundandir. Muohidada ham uzul-kesil bir qaror borligʻi uchun.

Bijgʻas. «Bichmoq» soʻzi bilan tomurdoshdir. Usmonlichadan «yarim» maʼnosida ishlatilgan. Buchuq soʻzi ham shu tomurdan bichuq boʻlsa kerak.

T

Toʻnga. Babir atalgʻan yirgʻuchi hayvon. Qoplon (tiger). Forslarning afrosiyob deganlari turk bekining ismi. Baʼzi botur kishilarning laqabi ham boʻlgʻan, baʼzilarga xitob qilgʻanda «arslonim, qoʻzim» deyilgani kabi, «toʻngam- toʻnga» ham deyilar emish.

Qatilgʻan ani keldir emdi manga,

Qurugʻ kelma ansiz manga, ey toʻnga

(«Qutadgʻu bilig»).

Bu soʻz «Hibatu-l-haqoyiq»da ham bordir. Biroq Najib Osimbek qanday nechundir «jamoat, xalq» deb maʼno beradi!

Tavramoq. Bu soʻz « Hibat ul-haqoyiq »da ham bordir. Kuchaymak demakdir. «Devoni lugʻat»gʻa koʻra, asl maʼnosi ipni yigirmak ekan. Demak, ipni yigirganda kuchaygani munosabati bilan «kuchamak» maʼnosida ishlatilgan. Bu soʻz ekanlar ishlatishi bilan aynan forschagʻa oʻtgan: Forslar ip yigirishga «toftin» derlarkim, tomuri «top»dir. «Kuch esanlik»ga ham top derlar. Bizning oʻzimizda ham «tobim

⁵ (*) Balak ettim ani shahmgʻa manunk,

Havodirigʻimni tugal bilositub (bilsun deb)

(«Hibatu-l-haqoyiq» birinchi qism 30-bet).

Bundagi «balak» soʻzini Najib Osimbek «alamat, nishon» deb tarjima qiladi, yangilishdur.

yo‘q, tobim qochdi» so‘zlari bor. Bularning hammasi ham shul «tavramoq»ning tomiri bo‘lg‘an. «Toftov» so‘zidan chiqqandir. «Tavramoq» so‘zi *shoshilmoq, ajala* ma’nolarida ham ishlatiladir.

Tushnamak. Bizning bukun tushmak deganimiz ma’no «Devoni lug‘at»da «tushnamak, tush qilmoq» so‘zlari bordir.

Tabaru. Taba + ru, yuqoru, teshqorining oxiridag‘i «r, uri» kabi taba: tomon, taraf demakdir.

Tubilamak. Yengmak. Bu kun usmonlichada «tepalamak» bordir.

Tuzumlik. Yumshoqlik. Bu kun bizda «sabr» ma’nosida «to‘zum-to‘zumlik» bor.

Tutchi. Tutash. «Qutadg‘u bilig»da «tutshi» shaklida ishlatiladir.

Tuzg‘urmoq. To‘yg‘izmoq, to‘ydirmoq.

Tusun. Asov, sho‘x, sarkash otlarg‘a «tusun» deyiladir. Fors lug‘atchilarining qanday o‘qilishida ixtilof etganlari «Tavsan-tusan» shudir.

To‘ru. Urf, odat, nizom. Chig‘atoy adabiyotida «To‘ra» shaklida ishlatilgan. Bu kun ham Chingizning «yasoq, to‘ra»si mashhurdir. «Abushqa» lug‘atig‘a ko‘ra, Chig‘atoy adabiyotida «qalqon» ma’nosida ham ishlatilgan.

To‘ksin. To‘kmak fe‘lining tomiridan bo‘lub, bir nav to‘rt puchmoqli tugun demakdir. «Devoni lug‘at»da «nav mina aluqt yuqadu ala arba axxi azlain» deyiladir.

Takma. Har bir.

Talim. Ko‘b.

Tum. Sovuq. Tumlug‘ – qish, sovuq.

Tulum. Yaroq. Tulumlug‘ – yarog‘li.

J

Jarkashmak. Saf tortmoq. Forschada saf ma’nosida qurilgan. «Jarka» shundandir. Zotan, «jarka» so‘zining turkchalgi fors lug‘atchilarig‘a ham ma’lumdir. Askar, qo‘shun ma’nosida bo‘lg‘an. Chig‘atoycha «cherik», usmonlicha «cheriy» so‘zlari ham, fikrimcha, shul «jarkashmak» tomuridan chiqqandir, «cherik so‘zi»ning mo‘g‘ulchasi ham shudir.

Jig‘moq. Yig‘moq.

Jalmak. Yig‘itmoq demakdir. «Lug‘ati chig‘atoy»da bu ma’noda «chalmoq «so‘zi bordir.

Jash. Feruza toshi. Turk tilida «y» bilan «j» tovushlarining olish-berishlarini ko‘zda tutub «yashil» so‘zining shundan chiqq’aniga hukm etmak mumkindir.

Jav. Shuhrat. «Lug‘ati chig‘atoy» egasi, «Abushqa»g‘a tayanib shuhrat olmoq ma’nosida «javmoq» so‘zini ko‘rsatib, Mir Haydardan tonuq keltiradir.

D

Daqi. Daxi, taqi, tag‘i, tag‘in.

S

Savamoq. Tamom bo‘lmoq, sob bo‘lmoq, bitmak. Buning tomiri «sav»dirkim: masal, hikoyat, so‘z xabar ma’nolaridir. Xabar, so‘z hikoyatning tarqalib turishi munosabati bilan bo‘lsa kerak, «tarqalib bitmak» ma’nolarida savranmak, savranmoq; bitirmak ma’nosida «savritmoq» so‘zlari bo‘lgani kabi:

«Balak etmish ani shaximg'a manunk,
Havodorlig'imni tugal bilsutib (bilsun deb)

«Hibatu-l-haqoyiq» 1-qism, 30-bet).

Bundagi «balak» so'zin Najib Osimbek «alamat, nishon» deb tarjima qiladilar, yangilishadirlar. «Tarqalmoq» ma'nosida savrulk mak so'zi bordir. Bu kun bizda bo'lg'an «savirmq» ham «sochi» so'zuda shu tomirdandir.

Siqirmoq. Nola qilmoq.

Sig'tamoq. Qattig' yig'lamoq. Alisher Navoiy «Muhokamatu-l-lug'atayn»da sig'tamoq ma'nosida ko'rsatadirlar.

Ul oyki kula, kula qir og'latdi meni,

Yig'latti meni demaki, siqtatti meni.

Navoiy

Yuqoridagi «siqirmoq» ham shu tomirdandir. Bizda bu kun «yig'i-sig'i»; yig'lab, sixtab so'zi borkim, «sig'i» shu tomirdandir.

Savuk. Bu kun bizni sevgili deganimiz ma'noda mahbub, ma'shuq demakdir.

Buzunda savuk bo'ldi qutqi kishi,

Savuk so'z bo'lur ko'ngli qut kishi^(*)

(«Qutadg'u bilig»).

Singak. «Devoni lug'at»ga ko'ra, bu so'z shaharlarda pashsha ma'nosida yurar ekan, dalalarda chibin ma'nosida... Bu kun usmonli turklari «chibin»ga «chinak» derlar.

Su. Askar ma'nosida.

Suchulmak. Yalaong'ochlanib chiqmoq. Chayondan chiqmoq (shul askar ma'nosidagi «su» ham «suchulmak»ning bilganimiz «suv» so'zining tomuri bila munosabati yo'qmi?).

Saqinj. Qayg'u, alam.

So'kmak. Cho'kmakning ikkinchi bir lug'ati. (Ch) tovushi (s)ga aylangan.

Savulmoq. Mayl etmak.

Saran. Xasis. Bukun tatarchada ishlatiladir.

Sag'moq. Bukungi sut sog'moqda bo'lg'an ishlatishdan kengrak qilib ham ishlatilgan «Og'ziga og'u sog'di».

Q

Qali. Qanday, qachon. Bu so'z «Devoni lug'at»da, «Qutadg'u bilig»da har vaqt shunday yoziladir. Biroq bukun bizdagi qalay so'zidan boshqa narsa emasdir.

Qaniqi. Qani so'zining boshqa bir shaklidir. «Qutadg'u bilig»da ham ishlatiladir:

Qaniqi bu dunyo tilab tutg'uchi,

O'zinga temur kend to'ra yopg'uchi.

Qaliq. Havo, fazo.

⁶ (*) Bu baytdaki buzun el-ulus, qutqi tavazuli demakdir.

Qaymoq. Qaymoq demakdir. Ikkinchisining ham tomuri «qay»dir. «Devoni lug‘at»da «qazirmoq», usmonlichada «qayirmoq» so‘zi ham shu tomirdandir. Bizdagi «qayiq» so‘zi ham shu tomirdandir.

Qingri. Egri, bukun bizda hech bir turli kelishmak, istamagan so‘z(ni) tinglamagan enodchi kishilarga «qing‘ir» deyiladi.

Qarshi. Saroy. «Devoni lug‘at»g‘a ko‘ra, bu so‘z turkchadir. «Muqaddimatu-l-adab» mo‘g‘ulcha ekanini ko‘rsatmaydir. Holbuki, ko‘b kishilar buning mo‘g‘ulcha ekaniga ishonadirlar.

Qazash. Birodar, qarindosh demakdir. Ozarbayjonda buning «qash» shakli ishlatiladi.

Qartamoq. Davolamoq. Burung‘i turkchada «davolamak» ma‘nosida bo‘lg‘an. «O‘rtamak» bilan «qartanoq» so‘zlari diqqat etarlikdir. Birinchisining tomuri o‘simlik ma‘nosida «o‘t» bo‘lsa, ikkinchisining tomuri bilganimiz «qor»dir. Demak, burung‘i zamonlarda o‘simliklar bilan davolashka o‘xshab qor bilan davolash ham bor ekan.

Qag‘rulmoq. Bukun bizdagi qovrilmoqdir.

Qirchatmoq. Yuzdangina taroshlamoq. Taxdish etmak. «Lug‘ati chig‘atoy» egasi bu ma‘noda «qirchilmoq» so‘zini ko‘rsatadi.

Qiqirmoq. Qichqirmoq ma‘nosida bukun bizda ham ishlatiladi. Bizdagi «qiy-chuv» ham, «qiyg‘os» so‘zlari ham shu tomurdandir.

Qamug‘. Hamma: qamug‘ – qamu – hamu – hamma.

G

Gavramak. Kuchsizlanmak: Bo‘shashmoq. «Devoni lug‘at»da bu tomirdan:

Gavrak – bo‘sh, sust;

Gavshak

Gavturmak – bo‘shashtirmak, kuchsizlantirmak;

Gavratmak

Gavshatmak

Gavshamak – bo‘shashmak kabi ko‘b so‘zlar ko‘rsatiladi. Bu kun usmonli turklari orasida bulardan gavshamak, gavshatmak, gavshak kabi so‘zlar bordir.

K

Kartmak. Biroz kesmak, yo‘nmoq, biroz taroshlamoq. «Lug‘ati chig‘atoy»da bu tomurdan hisob taxtasi ma‘nosida «karti-kartik» so‘zlari ko‘rsatiladi, bukun bizda «kart yog‘», «qovundan bir karch» so‘zlari bo‘lg‘ani kabi, «kertmak» so‘zlari ham bor.

Kuvaz. Takabburli kishi.

Ko‘kshin. Ko‘kchil, yarim ko‘k.

Kedim. Kezin, keyin. «Devoni lug‘at»da « Qutadg‘u bilig» bilan «Hibbatu-l-haqoyiq»da buning (kedin, kekzin) ikki shakliga ham ko‘b uchramoq mumkindir. XVIII asrlarda yozilg‘an tatarcha «Asmoyil og‘a sayohatnomasi»da bu so‘zlarning «kezin = kazin» shakli bordir.

Kak. Kek, kina; o‘chlik, keklik kishi kina ham intiqom egasi demakdir.

Kuk. Maqom, nag‘ma, kuy. Alisher Navoiy buni nag‘ma o‘rnida ishlatadi:

Yig'lang, ey sham-u sirohiki, o'larimni bilib

Mutribi navhasaro navha kukun chaldi yana.

Bu so'zdan fe'l shakllari ham yasalar ekan. Mir Haydardan:

Turk suridini tuzuk birla tuz,

Yaxshi ayolg'u bila kukla ko'buz.

Fikrimcha, bu bizdagi «kuy» so'zining xuddi o'zidir. «Kuy» so'zining o'zidan ham fe'llar yasalar. Kuyladim, kuylamak...

Kuyurmak. Kuydirmak.

Kislinmak . Kis + il + in + mak. O'z-o'zidan kesilmak.

Kuzmak. Ko'zlamak, muntazir bo'lmoq. «Muntazir bo'lmoq» ham «saqlamoq» ma'nolarida «kuzarmak» ham bordir. Bu bining bu kun «kutmak» deganimiz so'zning aslidir.

Y

Yarog'. Fursat. Yaroqli vaqt ma'nosida «yaramoq»dan oling'an bo'lsa kerak.

Yima. Yomon holg'a tushgan, kuchsizlik, tubanlikga uchragan kishilar. Bundan «yunchimoq», «yunchidi» kabi fe'llar ham bor.

Yanchimoq. Yanchmoq, chaynamoq.

Yalinguq. Odam, inson. Buning *yalang'och* so'zidan oling'anini Mahmud Koshg'ariy so'zlaydir.

Yavlaq. Shum, axloqsiz.

Yushulmoq. Qaynab chiqmoq. Yushulmoq: oqib to'kmak. Bu so'zning forscha «jo'sh-jo'shidan» bilan munosabati bor.

Yazim. Yayim. «Yoymoq»dan oling'an ism. To'shak ma'nosida.

Yin. Uya. Bu kun bizda «in» deyiladi.

Yuduzmak. Yo'qlamak.

Yumutmoq. Jam etmak, yig'moq. «Ko'z yummoq»dag'i «yummoq» so'zida jam etmak ma'nosi bordir. Bu «yumutmoq» ham shu tomirdandir. «Yumruq» ham shundandir. «Devoni lug'at»da «hammasi» ma'nosida «yung'i» so'zi ham bordir, shu tomirdandir.

Yaqishmoq. Yaqinlashmoq demakdir. «Yaq», «yaqin», «yaqlashmoq», «yaqinlashmak», «yaqa» so'zlari buning bilan tomirdoshdir.

Yatika. Arabcha «banotunnash», forscha «haft dodaron» atalg'an yetti yulduz. «Devoni lug'at»g'a ko'ra, «aka» hamshira ma'nosida ekan. Shu holda buning asli «yetti aka» bo'ladi.

Yiramoq. Yiroqlashmoq.

Yulaq. Chashma. Bukun buloq deyiladi.

Yula. Chirog'. «Muqaddimatu-l-adab»ga ko'ra, buning mo'g'ulchasi «jula»dir.